



## KATTAQO'RG'ON SUVOMBORI.

**Talabboyeva Mohinabonu**

*Navoiy davlat pedagogika instituti 3-kurs talabasi*




**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Kattaqo'rg'on suvombori, uning qurilishiva suv sig'imi, balandligi, qaysi hududlarni suv bilan ta'minlashi qishloq xo'jaligiga ta'siri haqida bayon qilingan.*

**Kalit so'z:** *Kattaqo'rg'on suvombori, Zarafshon, Samarqand, chuqurlik, sig'im.*

Kattaqo'rg'on suvombori — gidrotexnika inshooti, O'zbekistonda birinchi qurilgan suv ombori. Kattaqo'rg'on shahri yaqinida tabiiy chuqurlikda barpo etilgan. Kattaqo'rg'on suv ombori. Zarafshon vodiysidagi ekin maydonlarini suv bilan ta'minlaydi va Zarafshon (Qoradaryo) daryosi suv rejimini tartibga soladi, sel va toshqin suvlarini jamg'aradi. 1940—1951 yillar davomida qurilib, foydalanishga topshirildi. Kattaqo'rg'on suv omborini asosiy inshooti kompleksi suv chiqargichli to'g'on, suv keltiriladigan va suv oqib ketadigan kanallardan iborat. 1941-yilda uz. 4 km, balandligi 28 m tuproqto'g'on ko'tarildi (keyinchalik to'g'on balandligi 31,5 m ga yetkazildi). Suv omborining hajmi yildan-yilga oshirib borildi va 1954-yilda loyihada ko'rsatilgan miqdor — 662 mln. m<sup>3</sup> ga yetkazildi. Uzunligi 28 km, suv sarfi 45 m<sup>3</sup>/s suv keltiruvchi kanal va uz. 15,2 km, suv sarfi 123 m<sup>3</sup>/s suv chiqaruvchi kanal qurildi. 1956-yil suv keltiruvchi kanal rekonstruksiya qilinib, uning suv o'tkazish imkoniyati 100 m<sup>3</sup>/s ga yetkazildi, o'zani to'g'rilanib, kengaytirildi va o'zanga beton to'shama yotqizildi. Natijada kanal uz. 21,2 km ga yetdi. To'g'on (maksimal balandligi 28,62 m, uz. 3915 m) va quloqlarning rekonstruksiya qilinishi natijasida (1968-yilda) Kattaqo'rg'on suv ombori. sig'imi 900 mln. m<sup>3</sup> ga yetkazildi, shundan



foydali sig'imi 840 mln. m<sup>3</sup>. Suv yuzasi maydoni 79,5 km<sup>2</sup>. Uzunligi 15 km, maksimal eni 10 km, o'rtacha eni 5,3 km, maksimal chuq. 25 m, o'rtacha chuqurligi. 11,3 m.



Kattaqo'rg'on suv omborio. suvi bilan Samarqand, Buxoro viloyatlaridagi 94 ming ga yer sug'oriladi va 150 ming ga yerning suv ta'minoti yaxshilangan. Kattaqo'rg'on suv omborio. suvi kanal bilan Qoradaryoga quyiladi. Suv omborida baliqchilik tez rivojlandi, yiliga o'rta hisobda 240—250 s baliq ovlanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Ushbu maqolada O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma'lumotlaridan foydalanilgan.
3. Hidrologiya
4. Hidrologiyaga oid ushbu maqola chaladir. Siz uni boyitib, Vikipediya yordam berishingiz mumkin.
5. Turkum: Suv omborlari O'zbekiston suv omborlari Kattaqo'rg'on Samarqand viloyati suv obyektlari